

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60411100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy  
munosabatlar bakalavriat ta'lif yo'naliishing*

***MALAKA TALABLARI***

Toshkent -2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024 yil «25» iyun dagi 218 - sonli buyrug‘i bilan

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilar takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1. <i>Malaka talabining qo‘llanilishi</i> .....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>7</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....</b>	<b>8</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>9</b>
<b>Bibliografik ma’lumotlar.....</b>	<b>11</b>
<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	<b>12</b>

## 1. Umumiy tavsifi

**60411100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy shaklida amalga oshiriladi. Barcha tal’im shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi tal’imda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### 1.1. Qo‘llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi

Malaka talabi 60411100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar t’alim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy tal’im tashkilotlari uchun talablar majmuuni ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilar:

mazkur tal’im yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va uning ta’limga integratsiyasini ta’minalash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy tal’im tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilar;

tal’im yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy tal’im tashkilotining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;

tal’imni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy tal’im tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy tal’im tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy tal’im tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

**60411100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar** – bakalavriat tal’im yo‘nalishi – fan va ishlab chiqarish sohasidagi yo‘nalish bo‘lib, u xalqaro savdoni tashkil etish va rivojlantirish, mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy integratsion munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish, jahon iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimoti asosida rivojlanishini ta’minalash, xalqaro mehnat migratsiyasini tartibga solish, xalqaro valyuta – kredit munosabatlari va xalqaro kapital migratsiyasini tashkil etish va rivojlantirish, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish, mamlakatlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish kabilarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” tal’im yo‘nalishi sohaga tegishli tarmoq, korxona va bo‘linmalarni rivojlantirishga, istiqboli loyihalarni belgilashga, kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari va soha mutaxassislarining taklif va talablaridan kelib chiqqan holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat sohalarida qo‘srimcha va o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

tashqi savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi davlat tashkilotlari, tashqi ishlari vazirligining iqtisodiy diplomatiya bilan shug‘ullanuvchi bo‘linmalari, elchixonalar va konsulliklar, tashqi iqtisodiy faoliyat, yani eksport yoki import faoliyati bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari (xususiy korxonalar), xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo‘shma korxonalar, korxona va tashkilotlardagi tashqi iqtisodiy faoliyat tuzilmalari va xizmatlari, oliy tal’im muassalaridagi “Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar” tal’im yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlaydigan bo‘linmalar, shuningdek jahon iqtisodiyoti, xalqaro iqtisodiy munosabatlar va tashqi iqtisodiy faoliyat muammolarini o‘rganadigan tadqiqot

markazlari.

**60411100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy** tal’im yo’nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgandan keyin, professional tal’im muassasalarida tal’imning vakolatlari boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *tashkiliy–boshqaruv;*
- *axborot–tahliliy faoliyat;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko ‘rsatish;*
- *tadbirkorlik.*

### 1.2.4. Kasbiy vazifalari

**60411100 – Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar** tal’im yo’nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

ilmiy tadqiqot ishlarida jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar muammolariga oid turli-tuman loyihalarni tayyorlash va amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarda, shuningdek, sohaga oid ilmiy materiallarni tayyorlashda qatnashish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasiga oid maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik ma'lumotlar, shuningdek, sohaga oid mahalliy va xorijiy fan-texnika yutuqlarini o‘rganish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasiga oid ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish yoki loyiha ishlanmalarini bajarishda ishtirok etish;

belgilangan mavzular (topshiriqlar) bo‘yicha ilmiy-texnik ma'lumotlarni yig‘ish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirishni amalga oshirish;

ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda tal’im yo’nalishidagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarining muammolari bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishslash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

tal’im yo’nalishidagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;

ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

ilmiy muammolar yechimi natijalarini amaliyatga joriy etish qobiliyatlariga ega bo‘lish; umumiy o‘rta, o‘rta maxsus tal’im muassasalarida tayyorgarlik yo’nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha iqtisodiy fanlardan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;

o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;

mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vositalar va shakllar jabhalarida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

fujarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, huquqiy hamda me’yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi;

rejalashtirish, shu jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni rejalashtitish ishlarini bilishi va tashkil etishi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektni xo‘jalik-moliyaviy va ishlab chiqarish faoliyati bo‘yicha istiqbolli va joriy rejalarni (dasturlarini) ishlab chiqishi;

xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda mamlakatimiz va xorij tajribalarini o‘rganishi;

ishlab chiqarishning texnologik asoslarini bilishi;

xo‘jalik yurituvchi subyektlarni texnika-iqtisodiy hisob-kitoblar va xo‘jalik faoliyati tahlilini olib borishda axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanishi;

mehnatni muhofaza qilish me’yor va qoidalariga amal qilishi;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda ishlab chiqarish samaradorligini ta’minalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yechimlarini amaliyotga tatbiq etishi;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruvning oqilona qarorini qabul qilishi;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlarining faoliyatini tashkil etish va boshqarish nazariyasini bilish va uni amaliyotga joriy etish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlarida inson resurslarini boshqarish usullari va jarayonlarini bilish va undan foydalana olish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyektlari faoliyatini boshqarishni tahlil qilish va baholash usullarini bilish va amaliyotga tatbiq qilish;

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me’yorlari va talablari asosida tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar ko‘rsatkichilarining o‘zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;

tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash.

**Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyatida:**

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub’ektlarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanish va ularni barqaror rivojlanishini ta’minalash buyicha tavsiyalar ishlab chiqishi;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ektlari o’rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tahlil qilish va samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarini boshqarish, hamda jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni aniqlash va rejalahtirish;

mamlakatimiz xo‘jalik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyatini oqilona tashkil etishda jahon tajribasini bilish va undan amaliyotda foydalanish qobiliyatlariga ega bo‘lish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga oid asosiy bilim va tajribalardan amaliyotda foydalana olish;

transmilliy korporatsiyalar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, integrasiyon birlashmalar yoki tuzilmalar, xalqaro moliyaviy institutlar va boshqa shu kabilar faoliyatini tashkil etish va boshqarish to‘g’risidagi bilimlardan amaliyotda foydalanish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga ta’sir qiluvchi omillarni ilmiy jihatdan tasniflay olish va bunday tasnifdan kelib chiqqan holda tahlil qila bilish;

jahon mahsulotlar va xizmatlar bozorining rivojlanish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qila olish;

tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan mahalliy korxona va tashkilotlarning jahon mahsulotlar va xizmatlar bozoridagi faoliyatini baholash;

tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan mahalliy korxona va tashkilotlarning faoliyatiga ta’sir qiladigan tashqi omillarni baholash to‘g’risidagi bilim va tajribalardan amaliyotda foydalana olish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarga oid prezentsiyalar qila olish va turli-tuman loyihalarni bajara olish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga oid bo‘lgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘g’risida bilim va tajribaga ega bo‘lish hamda ushbu ko‘rsatkichlarga tayangan holda tahlillar o‘tkaza olish;

tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanadigan korxona va tashkilotlar faoliyatini tashkil qilish va boshqarish tizimini zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda yaxshilash va kengaytirishga oid chora-tadbirlarni qo‘llay olish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini an'anaviy tahlil qilish usullarini amaliyotda qo‘llay bilish;

jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish o‘rtasidagi farqlarni tahlil qila olish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sub'ektlarining iqtisodiyoti to‘g’risidagi bilim va tajribalarga ega bo‘lish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishini baholashda qo‘llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalana bilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

yangi xalqaro biznes-loyihalarini shakllantirish va amalga oshirish;

xalqaro biznesni tashkil etish;

tashqi savdoni tashkil etish;

xalqaro biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

xalqaro hamkorlar bilan bitimlar tuzish.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**Umumiyligi kompetensiyalar:**

dunyoqarash ba tafakkur bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi; gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

Vatan va dunyo tarixini bilishi, ma’nnaviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo’lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o’z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

axborot yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lishi, o’z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

tegishli bakalavriat yo’nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o’z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e’tiqodga, o’zini jismoniy chiniqtirish uquv va ko‘nikmalariga ega bo’lishi lozim.

### Kasbiy kompetensiyalar:

tashqi iqtisodiy faoliyatni yuritadigan xo‘jalik sub'ekt faoliyatini rejalashtirish, hisob-kitob va tahlil qilish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar, huquqiy hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

jahon iqtisodiyoti rivojlanishining moliyaviy – iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasidagi o‘zgarish, siljish va tebranishlar, shuningdek yangiliklarni tahlil qilish va tegishli xulosa chiqarish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o‘zgarishlarga moslashish strategiyalarini ishlab chiqish, rivojlantirish va baholash;

jahon bozori kon'yukturasida mavjud risklarni aniqlash, baholash, oldini olish yoki bartaraf etish yo‘llarini aniqlash;

jahon mamlakatlarini o‘zaro birlashtiruvchi turli integratsion guruhlarni shakllantirish va rivojlantirish yo‘llarini aniqlash;

mamlakatimizning diplomatik munosabatlarini rivojlantirishda faol ishtirot etish, elchixonalar, konsulliklar va xorijiy tashkilotlarning vakolatxonalarida faoliyat olib borib, O‘zbekiston manfaatlarini himoya qilish;

mamlakatlar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish xo‘jalik subyektlari o‘rtasidagi tashqi iqtisodiy bitimlarni shakllantirish hamda tadbiq qilishga oid barcha jarayonlarda ishtirot etish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar ishtirotchilar (xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, davlatlar, transmilliy korporatsiyalar) faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadigan moliyaviy – iqtisodiy risklarni baholash;

xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar va transmilliy korporatsiyalarda moliyaviy boshqarish tizimi to‘g‘risida zarur bilimlarga ega bo‘lish va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;

integrasiyon birlashmalar yoki tuzilmalarda moliyaviy - iqtisodiy faoliyatni tashkil etish va rivojlantirish to‘g‘risida zarur bilimlarga ega bo‘lish va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;

turli mulk shakllariga tegishli, turli tarmoq va sohalarning xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat xizmatlari hamda bo‘limlari faoliyati boshqaruvini tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha qabul qilinadigan qarorlarni tayyorlashda ishtirot etish;

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdoga oid moliyaviy – iqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;

xalqaro darajada faoliyat ko‘rsatadigan sub'ektlarning moliyaviy – iqtisodiy faoliyatini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlarni o‘tkazish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

### 3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiylar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo’nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

1. O‘quv tanishuv amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yukamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>					
<b>1.00</b>		<b>Majbuliy fanlar</b>	<b>3150</b>	<b>105</b>	
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1, 2
1.03	IAKTT1104	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	120	4	1
1.04	XT11208	Xorijiy til 1	240	8	1, 2
1.05	XT13410	Xorijiy til 2	300	10	3,4
1.06	O’RT1204	O’zbek (rus) tili	120	4	2
1.07	ITT1104	Iqtisodiy ta’limotlar tarixi	120	4	1
1.08	O’EYT1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.09	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.11	AKKK1104	Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	1
1.12	FAL1304	Falsafa	120	4	2
1.13	STAT1305	Statistika	150	5	3
1.14	EKMET1405	Ekonometrika	150	5	4
1.15	MIKIQ1305	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.16	MAKIQ1405	Makroiqtisodiyot	150	5	4
1.17	FINAC1305	Moliyaviy va boshqaruv hisobi	150	5	3
1.18	GREEC1505	"Yashil" iqtisodiyot	150	5	5
1.19	INTBF1505	Xalqaro bank ishi va moliya	150	5	5
<i>Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar bo‘yicha majbuliy fanlar</i>			<b>1350</b>	<b>45</b>	
1.20	FORIN1305	Xorijiy investitsiyalar	150	5	3
1.21	INTEG1505	Xalqaro iqtisodiy integratsiya va globallashuv	150	5	5
1.22	EDBE1605	Iqtisodiy diplomatiya va biznes etiket	150	5	6
1.24	INTECO1505	Xalqaro iqtisodiyot	150	5	5
1.25	WORIDEC13410	Jahon iqtisodiyoti 1,2	300	10	3,4
1.26	RESMS1605	Tadqiqot usullari va ko‘nikmalari	150	5	6
1.27	IEA1605	Xalqari iqtisodiy shartnomalar	150	5	6
1.28	IL1605	Xalqaro huquq	150	5	6
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>4-7</b>
<i>Kvalifikatsiya</i>			<i>Xalqaro iqtisodchi</i>		
<i>Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar (shaxs tillari bilan) bo‘yicha majbuliy fanlar*</i>			<b>1140</b>	<b>38</b>	
1.21	O’JXT1404	O’zbekiston jahon xo‘jaligi tizimida	120	4	4
1.22	TIF1804	Tashqi iqtisodiy faoliyat	120	4	6
1.23	XT11-852	Xorijiy til	900	30	1-8

<b>2.00</b>	<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1560</b>	<b>52</b>	<b>3-8</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>				
	<b>Xalqaro iqtisodchi (sharq tillari bilan)</b>			
	<b>Jami</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
	Malakaviy amaliyot	900	30	8
	Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
	<b>Jami</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
	<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

\*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti uchun amal qiladi.

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---


### Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul', tal'im yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, iqtisodiyot, xalqaro valyuta – kredit munosabatlari, jahon valyuta – kredit bozori, valyuta – kredit tizimi, jahon bozori, xalqaro marketing, xalqaro marketing strategiyalari, to‘g‘ridan – to‘g‘ri xorijiy investisiyalar, erkin iqtisodiy hududlar, jahon xo‘jaligi, integratsion jarayonlar, integrasion birlashmalar yoki tuzilmalar, tashqi savdo, eksport – import operatsiyalari, tashqi iqtisodiy bitimlar, muzokaralar, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar, global bozor, xalqaro menejment, biznes strategiyasi, xalqaro diplomatik munosabatlar, tashqi iqtisodiy faoliyat, xorijiy investitsiyalar, xorijiy mamlakatlar, xalqaro siyosat, global xavfsizlik.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari  
hamda kadrlar iste’molchilari**

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor  T. Teshabayev

2024 yil « 13 » 06



O’zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

2024 yil « 25 » 06

M.O.

O’zbekiston Respublikasi  
Investisiyalar, sanoat va savdo vazirligi  
Tashqi savdo departamenti Marketing  
boshqarmasi

Boshqarma  
boshligi  A. Axmadjanov

2024 yil « 20 » 06

M.O.



Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya  
universiteti

Rektor  S. Safoyev

2024 yil « 14 » 06



Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti

Rektor  G. Rixsiyeva



O’zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot assambleyasi

Rais

M. Umarov

2024 yil « 19 » 06

M.O.

